

## BUGUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR, ERTANGI YOSHLARNI MUVAFFAQIYATLI QILADI

*Parkent tumani adliya bo'limi yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi bosh  
yuriskonsulti  
Tojiboyev Diyorjon Pardaboy o'g'li*

**Annotatsiya:** Maqolada 2025-yil 14-fevralda qabul qilingan “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-60 sonli Prezident qarori haqida so‘z boradi. Ushbu qaror, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalg etish, ularning startap va biznes loyihalarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishni maqsad qiladi. Qaror asosida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilib, yoshlar ishtirokidagi biznes loyihalarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash uchun mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan. Maqolada yoshlar uchun tashkil etilgan imkoniyatlar va qarorning ahamiyati, shuningdek, tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bat afsil tushuntirilgan.

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalg etish, ularning startap va biznes loyihalari, g‘oya va tashabbuslarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini rag‘batlantirish, shuningdek, yoshlarga qo‘srimcha ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirish maqsadida 2025-yilning 14-fevral kuni “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-60 sonli Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida Yoshlar ishlari agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etiladi.

Qarorning 1-ilovasiga muvofiq Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalari belgilangan. Quyidagilar Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalar, shuningdek, yoshlar ishtirokidagi va qishloq xo‘jaligi

yerlari ajratilgan yoshlarga xizmat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi kooperativlari loyihalarini (keyingi o'rnlarda – biznes loyihalar) qo'llab-quvvatlash;

ichki va tashqi bozorlarda talab ko'p bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatlari mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi biznes loyihalarni moliyalashtirish;

kooperatsiya aloqalari asosida yoshlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni (xizmatlar ko'rsatishni) rivojlantirish orqali biznes loyihalarga ko'maklashish;

startap, raqamli, innovatsion, yashil va resurs tejamkor tamoyillar hamda yondashuvlarga asoslangan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

yoshlar ishtirokida shakllanib kelayotgan milliy brendlarni yanada rivojlantirishga ko'maklashish;

biznes loyihalarni tijorat va xizmat ko'rsatish binolari (maydonlari) bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlash;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun o'tkazilgan nufuzli tanlovlarda g'olib (sovrendor) bo'lган startap loyihalarni moliyalashtirish;

yoshlarning istiqbolda muvaffaqiyatga erishish salohiyati yuqori bo'lган startap g'oyalarining namunaviy modelini (MVP) yaratish, xalqaro inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Jamg'arma mablag'lari belgilangan manbalar hisobidan 100 million AQSH dollari ekvivalentiga teng summaga yetkaziladi.

Ushbu manbalar quyidagilar:

Davlat budgetidan 2025-yilda ajratiladigan 200 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining qoldiq mablag'lari hamda ushbu jamg'arma hisobidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha olinadigan mablag'lar;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalari;

Jamg'arma mablag'larini tijorat banklari depozitlariga belgilangan tartibda joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg'arma ko'magida kamida 50 ming nafer yoshlarning bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish uning faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Belgilangan daryo, kanal va sohil bo'yalarida xizmat ko'rsatish, ko'ngilochar va dam olish maskanlarini tashkil etish bo'yicha biznes loyihalarni joylashtirish uchun o'rnatilgan tartibda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish orqali yer uchastkalari ajratiladi.

Yoshlar ishlari agentligining Jamg'arma qurilishi ajratiladigan mablag'lari hisobidan Jamg'arma huzurida ustav fondi 10 million AQSH dollari ekvivalentiga teng bo'lgan yoshlarning istiqbolli startap loyihalarini moliyalashtiradigan venchur jamg'arma tashkil etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bugungi jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biridir. Har bir yoshga o'z imkoniyatlari va resurslariga ega bo'lishi, o'z maqsadlariga erishish yo'lida yetarli qo'llab-quvvatlashni olish juda muhim. Shunday qilib, yoshlar faqat kelajakdag'i o'zgarishlarni amalga oshiruvchi faollar emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan kuchdir. Ularning ta'lim, ish bilan ta'minlash, kreativlik va ijtimoiy faoliyik kabi sohalardagi imkoniyatlar bilan yanada rivojlanishi jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, har bir yoshni qo'llab-quvvatlash, ularning potensialini to'liq amalga oshirishlariga imkon yaratish barcha uchun foydali bo'ladi va kelajakni yanada yaxshilashga yordam beradi.

**Parkent tumani adliya bo'limi yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi bosh  
yuriskonsulti Tojiboyev Diyorjon  
Pardaboy o'g'li**

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldag'i PQ-60 sonli qarori "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023 yilgi "Yoshlar bandligi va tadbirkorlik faoliyati" bo'yicha statistika hisobotlari.
3. "Tadbirkorlik va iqtisodiyot: teoretik va amaliy jihatlar", A. M. Tursunov, 2020-yil.
4. "Innovatsion startaplar va raqamli iqtisodiyot: yangi imkoniyatlar", O'zbekiston Respublikasi Innovatsiyalar vazirligi, 2023.
5. "Yoshlar va iqtisodiy taraqqiyot: biznes imkoniyatlari va qiyinchiliklar", O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi, 2024-yil.
6. United Nations Development Programme (UNDP) "Youth Entrepreneurship and Employment: Challenges and Opportunities", 2022.

7. World Bank "Support to Youth Entrepreneurship and Employment Programs", 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi "Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturi", 2022.
9. "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish: mahalliy va xalqaro tajriba", T. R. Ahrarov, 2021.